

QURILISH TASHKILOTLARINING INNOVASION RIVOJLANISHIDA XODIMLAR FAOLLIGINING AHAMIYATI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI

Karimova Aziza Azamiddin qizi

mustaqil tadqiqotchi

E-mail: azizakarimova271199@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimiz innovatsion strategiyasining mazmuni va uning qurilish sohasida amalga oshirilishi tahlil qilingan bo‘lib, innovatsion faoliyat subyektlarining muhim unsuri bo‘lgan qurilish tashkilotlarining innovatsiyalarga doir manfaatli maqsadlari o‘rganilgan. Muallif tomonidan qurilish pudrat tashkilotlarida innovatsion faollik yo‘nalishlari va shakllari tadqiq etilgan hamda ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: «tarmoq-hudud-ilmiy/oliy ta‘lim-tashkilot» zanjiri, innovatsion faoliyat, xodimlar innovatsion faolligi, innovatsiyalarga moyillik.

Аннотация

В настоящей статье проводится анализ содержания инновационной стратегии нашей страны и внедрения её в строительстве, также изучаются интересы и цели строительных организаций, как важного элемента субъектов инновационной деятельности. Автором исследованы формы и направления инновационной активности в подрядных строительных организациях и разработаны предложения по их совершенствованию.

Ключевые слова: цепочка “отрасль-территория-наука/высшее образование-организация”, инновационная деятельность, инновационная активность работников, склонность к инновациям.

Abstract

This article analyzes the content of our country’s innovation strategy and its implementation in construction, and also studies the interests and goals of construction organizations as an important element of the subjects of innovation activity. The author has studied the forms and directions of innovation activity in contracting construction organizations and developed proposals for their improvement.

Keywords: chain "industry-territory-science/higher education-organization", innovation activity, innovative activity of employees, propensity to innovation.

KIRISH

Bizning fikrimizcha, zamonaviy samarali iqtisodiyotning asosiy belgisi – uning innovatsiyalarga moyilligidir. Innovatsion moyillik deganda iqtisodiyotdagi barcha subyektlar va sohalarda yangiliklarni o‘zlashtirish qobiliyati tushuniladi. Haqiqatan ham, an’anaviy innovatsion faoliyat emas, balki aynan innovatsiyalarga moyillik kompaniyalarda mehnat jamoasini o‘zgarishlarni amalga oshirishga, xorijiy tajribani tezkorlik bilan o‘zlashtirishga, yangi g‘oya va yechimlarni ishlab chiqarishga joriy etishga undaydi. Yaponiyaning Ikkinchi jahon urushidan keyingi innovatsion siyosati,

bugungi kunda esa Xitoy tajribasi innovatsiyalarga moyillik qanchalik kuchli omil ekanini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar innovatsion rivojlanishga ustuvor vazifa sifatida qarashni taqozo etmoqda. Buning isboti sifatida 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasiga e'tibor qaratish mumkin [1]. Strategiyaning "...asosiy maqsadi — mamlakatda kreativ iqtisodiyotni shakllantirishda yangi ish o'rni yaratishdan boshlab iqtisodiy qiymat (kapital) yaratishgacha bo'lgan «tarmoq-hudud-ilmiy/oliy ta'lim tashkilot» uzluksiz ekotizimini rivojlantirish" deb belgilangan. Shu bilan birga, strategiyada "innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish", "xodimlarni baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish" vazifalari aynan innovatsiyalarga moyillik muhitini yaratishga qaratilgan.

Strategiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: innovatsion infratuzilma subyektlari (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startup akselerator, inkubator) tarmog'ini shakllantirish orqali startup tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni (kapital yaratishni) tashkil etish; innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish; kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini kuchaytirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishini ta'minlash va boshqalar [1].

Korxonada va tashkilotlarning innovatsiyalarga moyilligi xodimlarning innovatsion faol xulqi bilan chambarchas bog'liqdir. Innovatsion faollik zamonaviy kreativ xodimning asosiy belgilaridan biri bo'lib, innovatsiyalarni izlash, topish, o'zlashtirish va ommalashtirishda tashabbus ko'rsatishni anglatadi. Boshqa adabiyotlarda innovatsiyalarga moyillik xodimlarning ijodiy va innovatsion qobiliyatlari, shuningdek, korxonada innovatsiyalarni joriy etish zaruratini anglash sifatida ta'riflanadi. Innovatsion faollik tashkilotlarning innovatsion faoliyatini baholashning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Ushbu tushunchaning ahamiyatli tomoni shundaki, unda innovatsion salohiyatdan foydalanish bilan birga jamoada innovatsion iqlimning shakllanganligi ham o'z aksini topadi. Shu bilan birga, innovatsion salohiyatning amaliyotda ifodalanishi tashkilot xodimlarining innovatsion faolligi orqali namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlarda xodimlarning innovatsion faolligi atamasi keng muhokama qilingan bo'lib, olimlarning ushbu masalaga turli qarashlari mavjud. A.A. Trifilova,

O.N. Melnikov, I.V. Baranov, M.V. Cherepanov, V.P. Barancheyev, N.P. Maslennikova, V.M. Mishin, Yu. Simachev, Sh.A. Musayeva, G.P. G‘ulomova, I.A. Usmanov [7,8,9,10,11,12,13,14] kabi olimlar xodimlarning innovatsion faolligini ularning ijodiy qobiliyatlarini korxonaning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ro‘yobga chiqarilishi sifatida tushunsalar [2], boshqa tadqiqotchilar uni xodimlarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar deb ta’riflaydilar [3]. Ayrim olimlar “xodimlarning innovatsion mehnat xulqi” (innovative work behavior) atamasini ham qo‘llaydilar, ya’ni yangi g‘oyalarni yaratish, taklif qilish va rivojlantirish bilan bog‘liq doimiy harakatlarni ifodalaydilar [5]. O‘zbekiston korxonalarida va tashkilotlarida xodimlarning innovatsion faolligini oshirish uchun tegishli ilmiy-uslubiy hamda amaliy takliflar ishlab chiqilishi dolzarb masala hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Qurilish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrda PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida o‘z aksini topgan. Tadqiqotni amalga oshirishdagi ilmiy taxmin shundan iboratki, qurilishdagi innovatsion faoliyatning samaradorligi birinchi navbatda xodimlarning faolligi, ya’ni innovatsion xulqiga bog‘liqdir. Shu asosda tadqiqotda qurilishdagi innovatsion faoliyat yo‘nalishlari, ularning natijalari va xodimlarning tutgan o‘rnini o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy yondashuvlar hamda nazariy, mantiqiy va amaliy usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sohasiga “Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”da alohida o‘rin ajratilgan. So‘nggi besh yilda investitsiyalarning, jumladan xorijiy investitsiyalar hajmining bir necha barobar oshishi qurilish sohasi boshqaruvida tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga, ya’ni qurilishning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash hamda xorijiy tajribani olib kirish kabi choralarni amalga oshirishga sabab bo‘ldi.

Olib borilgan chora-tadbirlar natijasida qurilishda innovatsion faoliyatning jadallashishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, “Shaffof qurilish” elektron platformasining ishga tushirilishi, tender mexanizmlarining raqamlashtirilishi, yangi materiallar va ilg‘or texnikalarning qurilish jarayonlariga joriy etilishi bugungi kunda sezilarli samara bermoqda. Biroq ularning barchasi davlat va vazirlik darajasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar ekanligini ta’kidlash lozim. Innovatsion strategiyaning muvaffaqiyati esa, avvalo, quyi pog‘onadagi qurilish pudrat tashkilotlarida yangi

texnologiyalar va jarayonlarning amalda qo‘llanishiga bog‘liq. Buning uchun innovatsion faoliyat subyektlarining barchasida jarayonning tezkorligi ta‘minlanishi zarur.

Farmonda belgilangan muhim vazifalardan biri “tarmoq–hudud–ilmiy/oliy ta‘lim–tashkilot” zanjirini samarali tashkil etishga qaratilgan. Ilmiy-uslubiy jihatdan ushbu vazifa mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun dolzarb bo‘lib, uning to‘liq amalga oshirilishi bugungi kunda yetarli darajada ta‘minlanmagan. Bunday vaziyat zanjir ishtirokchilarining innovatsion faoliyatga oid manfaatli maqsadlarni yuzaga keltiradi (1-jadval).

Ko‘rinib turibdiki, korxonalar va tashkilotlarning innovatsion faoliyatdan ko‘zlangan maqsadlari turlicha. Demak, Prezidentimiz tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi birinchi navbatda yuqoridagi maqsadlarning “tutash nuqtalari”, ya‘ni birlashtiruvchi omillarni aniqlashga bog‘liq bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Innovatsion tashkilot zanjirining manfaatli maqsadlari¹

Zanjir unsurlari	Innovatsion faoliyatga manfaatli munosabat
Tarmoq	Innovatsiyalarni tarmoq korxonalarida joriy qilish orqali xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish
Hudud	Innovatsion mahsulotlar (xizmatlar) hajmini oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlanish
Ilmiy/oliy ta‘lim	Fanning amaliy sohalarida innovatsion g‘oyalar va mahsulotlarni yaratish orqali yangi bilimlar hosil qilish
Tashkilot	Innovatsiyalarni joriy qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligi va tashkilot raqobatbardoshligini oshirish

Bugungi kunda innovatsion faoliyat zanjirining eng zaif bo‘g‘ini – bu tashkilotdir. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, uning asosiy maqsadlari samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishdan iborat. Mantiqan qaraganda, tashkilot rahbarlari va xodimlari taklif etilayotgan innovatsiyalardan tezkor va yuqori samara beruvchi natijalarni kutadi. Bu esa, o‘z navbatida, xodimlarning innovatsion faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, e‘tirof etish joizki, qurilish tashkilotlari va korxonalarida xodimlarning innovatsion faolligi zamon talablariga to‘liq javob bermaydi. Nazariy izlanishlardagi ta‘riflarni tahlil qilib, ularni qurilish pudrat tashkilotlariga moslashtirgan holda xodimlarning innovatsion faolligini quyidagicha ta‘riflash mumkin: bu xo‘jalik subyektlarining innovatsion faolligining uzviy

¹ Muallif ishlanmasi

elementlaridan biri bo‘lib, xodimlarning innovatsion faoliyatining intensivligi va unga moyillik darajasini ko‘rsatuvchi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichdir.


Mazkur atamada xodimlar alohida shaxs sifatida emas, balki tashkilot bo‘g‘ini sifatida olingan. Bu holat innovatsiyalarni alohida shaxs tomonidan joriy qilish mumkin emasligini, balki ular qurilish tashkilotining boshqa moddiy va nomoddiy resurslari bilan birgalikda ko‘rilishini anglatadi.

Qurilishda tashkilot xodimlarining innovatsion faoliyatda ishtirok etishi ikkita asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: yuqoridan (tashkilot rahbariyati va tashqi omillar tomonidan) kirib kelayotgan innovatsiyalarni joriy etishni qo‘llash va ularda ishtirok etish, hamda pastdan – tashabbus ko‘rsatuvchi sifatida innovatsion g‘oyalarni tashkilotda targ‘ib qilish va qo‘llash. Har ikkala yo‘nalishda ham xodimlarning innovatsion faolligi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Qurilish pudrat tashkilotlaridagi innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xodimlarning innovatsion faolligi to‘rtta asosiy omil bilan belgilanadi.

Xodimlarning innovatsion salohiyati ularning bilim, ko‘nikma va tajribalarining hosilasi bo‘lib, mustaqil ravishda yangilik yaratish qobiliyatini aks ettiradi. Qurilish sohasida yuqori malakali mutaxassislarining doimiy ravishda tajriba orttirishi va zamonaviy bilimlarni egallashi ularda kreativ fikrlash uchun mustahkam asos yaratadi.

Innovatsion muhit keng va murakkab tushuncha bo‘lib, yuqoridagi omillarning ta‘siri ostida mehnat jamoasida innovatsiyalarga ijobiy qarashni, ularni ishlab chiqarish faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qilishni o‘zida mujassamlashtiradi. Innovatsion muhitning asosiy belgisi – mehnat jamoasining barcha a‘zolari tomonidan yangiliklarni joriy etishdagi faollikdir. Boshqacha aytganda, doimiy ravishda sog‘lom raqobat sharoitida innovatsiyalarga qiziqishning mavjudligidir.

Innovatsion faollik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish tashkilot rahbariyatining muhim vazifasi hisoblanadi. Buning uchun xodimlarning kasbiy faoliyati, lavozimi, mehnat sharoitlari va salohiyatiga mos bo‘lgan innovatsion yo‘nalishlarni tavsiya etish choralari ko‘rish lozim. Hozirgi kunda aksariyat qurilish tashkilotlarining innovatsion faoliyati ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan kichik o‘zgarishlarni joriy etish bilan cheklanmoqda (1-rasm).



1-rasm. Qurilishda xodimlarning innovatsion faollik yo‘nalishlari [9]

O‘zbekiston olimlarining fikrlariga qo‘shilgan holda, loyiha va qurilish ishlarini bajarishga ixtisoslashgan tashkilotlarni misol sifatida oladigan bo‘lsak, xodimlar tashabbusi bilan olib boriladigan innovatsiyalarning quyidagi yo‘nalishlarini rivojlantirishni taklif etamiz:

- Qurilish materiallarini tejash. Qurilish mahsuloti tannarxining qariyb 60 foizini qurilish materiallari va konstruksiyalar tashkil etadi. Sohaning raqobatbardoshligini oshirish sharoitida qurilish materiallarini tejash yo‘llarini izlash qurilish tashkilotlarining dolzarb muammosidir. Muhimi, materiallarni tejashda uni bevosita ishlatayotgan ishchining fikri alohida ahamiyatga ega, chunki material hajmi va sifatining yakuniy bahosini aynan ular belgilaydilar.

- Ish joyi va operatsiyalarni takomillashtirish. XX asr boshlarida F. Teylor o‘z izlanishlarini xodimlarning ish jarayonini o‘rganishdan boshlagan. Bugungi kunda ham bu masala dolzarbligini yo‘qotmagan, ya’ni mehnatni ilmiy tashkil qilish samaradorlikning asosiy mezonini hisoblanadi. Shu bois ishchilar va past bo‘g‘in rahbarlarining innovatsion takliflarida ish joyi, asbob-uskunalar, mehnatning kichik operatsiyalari va mehnat harakatlarini takomillashtirish g‘oyalari qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

- Chiqindilarni takroriy ishlatish. Qurilish ishlab chiqarishining xususiyatlaridan biri shundaki, qurilish materiallari o‘lchamlari loyihada belgilangan parametrlariga mos kelmaydi. Natijada materialni kesish yoki moslashtirish talab qilinadi va qoldiqlar qurilish chiqindilariga aylanadi. Tejamkorlik va atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan bu qoldiqlardan boshqa ishlarda foydalanish yoki ularga yangi maqsadli yo‘nalish berish g‘oyalari qo‘llab-quvvatlanishi zarur.

- Texnologiyani takomillashtirish. Qurilish ishlab chiqarishi tashqi omillarga sezgir bo‘lgani uchun texnologiyani o‘z vaqtida yangilash va sharoitga moslashtirish xarajatlarni kamaytirishda muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu munosabat bilan xodimlarning texnologik innovatsiyalarni ommalashtirishdagi ijodkorligini rivojlantirish tizimini shakllantirishga e’tibor qaratish lozim.

- Atrof-muhitni muhofaza qilish. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining qurilish sohasidagi eng muhim vazifalaridan biri – qattiq qurilish chiqindilarini kamaytirishdir. Xodimlarning innovatsion faolligi chiqindilarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va ularni samarali boshqarishga yo‘naltirilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy va amaliy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, qurilish tashkilotlarida xodimlarning innovatsion faolligi o‘ziga xos tashkiliy-iqtisodiy yondashuv va dasturlarni talab qiladi. Shu bilan birga, qurilish tashkilotlarini o‘z holiga tashlab qo‘ymasdan, oliy ta’lim muassasalarida yaratilgan innovatsion ishlanmalarni tayyor

holatga keltirish va xo‘jalik shartnomalari asosida ularni amaliyotga tatbiq etish korxonaning mavqeyi hamda bozordagi raqobat kuchiga mos ravishda ustuvor yo‘nalish sifatida tanlanishi mumkin. Eng muhimi, dasturlarning amalga oshirilishi xodimlarning innovatsion motivatsiyasini oshirishga va korxonada innovatsion muhit shakllanishiga xizmat qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6 iyul PF-165-son “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6102462>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabr PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizasiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5130468>
3. Belkin V. N. Innovatsionnaya aktivnost menedjerov predpriyatiy kak usloviye razvitiya trudovogo potentsiala regiona. [Tekst] / V. N. Belkin, N. A. Belkina, O. A. Antonova // Ekonomika regiona. – 2018. – T. 14, vьyp. 4. – S. 1327-1340.
4. Balakina D. V. Innovatsionnaya aktivnost personala rossiyskix predpriyatiy [Tekst] / D. V. Balakina // Chelyabinskiy gumanitariy. – 2011. – № 1(14). – S. 32-35.
5. Hanan S. Alessa & Christopher M. Durugbo. Systematic review of innovative work behavior concepts and contributions. <https://link.springer.com/article/>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi. <http://stat.uz>
7. Musayeva Sh.A. Innovatsion marketing. Darslik. 2021. 324 b.
8. G‘ulomova G.P. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini shakllantirish ishlab chiqarishni modernizatsiyalash omili sifatida // Investitsiyalar va innovatsiyalar. – 2016. 7. – 66-73 b.
9. Usmanov I.A. Qurilish tashkilotlarida xodimlarning innovatsion faolligini oshirish yo‘llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. 11-12. – 522-525 b.
10. Трифилова А. А. Оценка инновационной активности предприятий // [Электронный ресурс] — 2011 — Режим доступа: <http://www.domino.innov.ru>.
11. Мельников, О.Н., Шувалов В. Н. Инновационная активность как фактор повышения конкурентоспособности предприятия // Российское предпринимательство. — 2009. — № 9.
12. Баранова И. В., Черепанова М. В. Методические подходы к оценке инновационной активности и инновационного потенциала вуза. — Режим доступа: <http://novinkor.com/biblioteka/innoworld/71-innoactive.html> (02 сен. 2011).
13. Баранчеев В. П. Управление инновациями: учебник / В. П. Баранчеев, Н. П. Масленникова, В. М. Мишин. — М.: Издательство Юрайт; ИД Юрайт, 2011.

14. Симачев Ю.В. Направления и факторы реформирования промышленных предприятий // Экономический журнал ВШЭ. - 2001. - №3. - С.328-347.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**